

Texnikumni bitiruvchi abituriyentlarga “Logistika” bakalavriat ta’lim yo’nalishiga suhbat asosida qabul qilish bo’yicha qo’yilgan talablar va ularning baholanishi:

Baholash 100 balli sistemada olib boriladi. Bitta abituriyentga jami to’rtta savol, har bir savolga maksimal 25 ball dan qo’yiladi va quyidagicha taqsimlanadi.

№	Abituriyentning bilim darajasiga qo’yilgan talablar	Ball
1	- savolga atroflicha, aniq va to’g’ri javoblar bersa; - sohaga oid islohotlar to’g’risidagi ma’lumotlardan xabardorligi; - sohaga tegishli qonun va qoidalar, tushuncha va atamalarni to’g’ri va aniq ifodalay olsa; - yo’nalishni tanlashda kasbning mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini to’g’ri va aniq tasavvur qila olishi; - kasbga doir qaror qabul qilishda ma’suliyatlilik, mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlarining mavjud ekanligi; - tanlangan yo’nalish bo’yicha yetarlicha bilim va kasbiy ko’nikmalar mavjud bo’lsa;	“21-25”
2	- savolga atroflicha cheklangan lekin to’g’ri javoblar bersa; - sohaga oid islohotlar to’g’risidagi ma’lumotlardan xabardorligi; - sohaga tegishli qonun va qoidalar, tushuncha va atamalarni to’g’ri ifodalay olsa; - yo’nalishni tanlashda kasbning mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini tasavvur qila olsa; - kasbga doir qaror qabul qilishda ma’suliyatlilik, mustaqillik darajasining mavjud ekanligi; - tanlangan yo’nalish bo’yicha yetarlicha bilim va ko’nikmalar mavjud bo’lsa;	“16-20”
3	- savolga tor doirada cheklangan javob bersa; - sohaga oid islohotlar to’g’risidagi ma’lumotlarda noaniqliklar kuzatilsa; - sohaga tegishli qonun va qoidalar, tushuncha va atamalarni to’g’ri ifodalay olmasa; - yo’nalishni tanlashda kasbning mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini yoritishda chalkashliklar kuzatilsa; - kasbga doir qaror qabul qilishda ma’suliyatlilik, mustaqillik darajasining qisman mavjud ekanligi; - tanlangan yo’nalish bo’yicha yetarlicha bilim va ko’nikmalar yetarli darajada bo’lmasa;	“11-15”
4	- savolga tor doirada cheklangan darajada yoki boshqa javoblar bersa; - sohaga oid islohotlar to’g’risidagi ma’lumotlarda noaniqliklar kuzatilsa; - sohaga tegishli qonun va qoidalar, tushuncha va atamalarni to’g’ri ifodalay olmasa; - yo’nalishni tanlashda kasbning mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini yoritishda chalkashliklar kuzatilsa; - kasbga doir qaror qabul qilishda ma’suliyatlilik, mustaqillik darajasining qisman mavjud ekanligi; - tanlangan yo’nalish bo’yicha yetarlicha bilim va ko’nikmalar yetarli darajada bo’lmasa;	“6-10”
5	- berilgan savollar to’g’risida tushunchaga ega bo’lmasa va javob bera olmasa;	“0-5”